O’QUV MARKAZLARINI AVTOMATLASHTIRISH TIZIMI EDU-SMART.UZ

# FOYDALANUVCHI QO’LLANMASI

ELEKTRON HISOBLASH MASHINALARI UCHUN YARATILGAN DASTURNING RASMIY RO'YXATDAN O'TKAZILGANLIGI TO'G'RISIDAGI

# GUVOHNOMA

СВИДЕТЕЛЬСТВО ОБ ОФИЦИАЛЬНОЙ РЕГИСТРАЦИИ ПРОГРАММЫ ДЛЯ ЭЛЕКТРОННЫХ –ВЫЧИСЛИТЕЛЬНЫХ МАШИН

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI INTELLEKTUAL MULK AGENTLIGI**
**АГЕНТСТВО ПО ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ ПРИ МИНИСТЕРСТВЕ ЮСТИЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**№ DGU 07212**

Ushbu guvohnoma O'zbekiston Respublikasining «Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida»gi Qonuniga asosan quyidagi EHM uchun dasturga berildi:

Настоящее свидетельство выдано на основании Закона Республики Узбекистан «О правовой охране программ для электронно-вычислительных машин и баз данных» на следующую программу для ЭВМ:

**O'quv jarayonini aqilli boshqarishga yo'naltirilgan "SmartEdu" dasturi**
**Программа "SmartEdu" направленная на умное управление учебным процессом**

Talabnoma kelib tushgan sana:
Дата поступления заявки: **15.11.2019**

Talabnoma raqami:
Номер заявки: **DGU 2019 1413**

Huquq egasi(egalari):
Правообладатель(и): **Nabiyev Inomjon Maxamatayup o'g'li, Qodirov Husniddin Husenovich, UZ**

Dastur muallif(lar)i:
Автор(ы): программы **Nabiyev Inomjon Maxamatayup o'g'li, Qodirov Husniddin Husenovich, UZ**

O'zbekiston Respublikasi elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar davlat reestrida 25.11.2019 yilda Toshkent shahrida ro'yxatdan o'tkazilgan.

Зарегистрирован в государственном реестре программ для электронно-вычислительных машин Республики Узбекистан, в г. Ташкенте, 25.11.2019 г.

**Direktor**
**Директор** **Т. Абдусаттаров**

INTELLEKTUAL MULK AGENTLIGI

**O'quv markazlari uchun shaxsiy kabinet:**

Har bir o'quv markazi uchun shaxsiy kabinetlar mavjud bo'lib, ular o'zlariga berilgan login va parollar orqali shaxsiy kabinetlariga kira oladilar.

O'quv markazining har bir xodimi uchun alohida login va paroli beriladi. Shaxsiy kabinetda xodim lavozimiga qarab turli vazifalarni bajarish imkoniyati taqdim etiladi.

Hozir O'quv markaz rahbari(Direktor)ning tizim bilan ishlash imkoniyatlari ketma-ketligini tushuntirib o'tamiz.

## KIRISH

Quyidagi oynada Direktor o'ziga berilgan login va parolni kiritadi:




**Shaxsiy kabinetga kirish oynasi**

Login va parol haqiqiyligi tizim tomonidan tasdiqlangach unga shaxsiy kabinetga kirish ruxsati beriladi va tizim avtomatik tarzda ishga tushadi. Natijada quyidagi oyna namoyon bo'ladi.




**Tizimning asosiy oynasi**

**Direktor** kabineti quyidagi modullardan iborat:

- **Foydalanuvchilar** – o'quv markazi xodimlari va ularning shaxsiy kabinetlarini nazorat qilish;
- **Fanlar** – Markazda mavjud fan va kurslarni boshqarish;
- **Dars jadvali** – Dars jadvallarini ko'rish va xonalarni biriktirish;
- **Guruhlar** – Guruhlarni shakllantirish, guruhlardagi o'quvchilar bilan ishlash bo'limi;
- **To'lovlar** – O'quv kurslari uchun oylik to'lovlarni qabul qilish, qarzdorlar bilan ishlash, to'lov hisobotlari bilan tanishish, to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'quvchilarning mobil ilovasiga, telegram akkauntiga, ota-onasi va o'quvchilarning mobil telefoniga sms shaklida yuborish.
- **Maosh** – Xodimlarning oylik ish haqilari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishish;
- **Davomat** – O'quvchilarning davomatlarini yuritish, ularning ota-onalariga sms xabarnomalar yuborish va oylik hisobotlarni olish;
- **Imtixonlar** – Imtixonlar o'tkazish, natijalar bilan tanishish, natijalarni sms xabarnoma shaklida yuborish;
- **Xabarlar** – O'quvchilar bilan Onlayn chat orqali muloqot qilish, topshiriq va vazifalarni fayl shaklida o'quvchilarning mobil ilovasiga yuborish. Tug'ilgan kun va bayram tabriklarini o'quvchilarning mobil ilovasiga, telegram akkauntiga va mobil telefoniga sms shaklida yuborish;
- **Vazifalar** – Xodimlarga yuklatilgan vazifalarni bajarilish jarayonini nazorat qilish;

- **E’lonlar** – O’quv markazi faoliyatiga bog’liq e’lonlar yozish va o’quvchilar mobil ilovasiga yuborish;
- **Sozlamalar** – Tizimni barcha funksiyalarini sozlash;




## Tizimni sozlash tartibi

**Tizimda Direktor avvalo o’z xodimlar tarkibini shakllantirishi lozim.**
Buning uchun tizimdagi asosiy menudan > **Foydalanuvchilar** bo’limiga kirib **menejer, adminstrator, hisobchi** va **o’qituvchilar** to’g’risidagi ma’lumotlarini kiritish lozim bo’ladi.
Agar direktor lozim topsa adminstrator foydalanuvchisini yaratib qolgan xodimlar va o’quvchilar to’g’risidagi ma’lumotlarni kiritish imkoniyatini **adminstratorga** berishi mumkin.
Shuning uchun birinchi navbatda **Adminstrator** foydalanuvchisi yaratilishi lozim. Har bir foydalanuvchilar yaratilishi jarayonida ularga alohida **login va parol** beriladi.




Adminstrator qo’shish uchun tizimdagi asosiy menudan **Foydalanuvchilar** bo’limiga kirib **Adminstrator** lavozimi tanlanadi. Shundan so’ng tizimda quyidagi oyna namoyon bo’ladi.

Ushbu oynadan qo’shish **(+)** tugmasi tanlanadi natijada quyidagi sahifa ochiladi. Ochilgan sahifadagi barcha maydonlar to’ldirilishi lozim. Yulduzcha **(*)** belgisi bilan ko’rsatilgan barcha maydonlar to’ldirilishi shart! Qolgan maydonlarni to’ldirish majburiy emas.






Barcha ma’lumotlar to’g’ri kiritilganligiga ishonch hosil qilganingizdan so’ng, **Saqlash** tugamasini bosing. Foydalanuvchi yaratish jarayoni to’g’ri amalga oshirilgan bo’lsa, siz kiritgan ma’lumotlar asosida o’quv markazi admistratori tizimda ro’yxatdan o’tadi. Shuni e’tiborga olish lozimki foydalanuvchilarni yaratish jarayonida tizim tomonidan ularga mos login avtomatik generatsiya qilib beriladi, istasangiz ushbu login o’rniga o’zingiz istagan nomdagi loginni yaratishingiz mumkin.




Yuqoridagi keltirilgan tartib asosida barcha foydalanuvchilar (menejer, hisobchi, o’qituvchilar) bazasi shakllantiriladi.

Adminstrator berilgan login va parol orqali tizimga kirish huquqiga ega bo’ladi.

Adminstrator shaxsiy kabineti orqali quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Fanlarni shakllantirish;
- Dars jadvaliga asosan xonalarni biriktirish;
- Guruhlarni shakllantirish;
- O’quvchilarni qabul qilish va bazaga kiritish;
- To’lovlarni qabul qilish va qarzdorlar bilan ishlash;
- O’zining oylik ish haqi to’g’risida ma’lumotlarni ko’rish;
- Imtixonlar tashkil etish va o’quvchilarga sms xabarnomalar yuborish;
- O’quv markazi to’g’risidagi yangiliklar va e’lonlarni tizimga joylashtirish.

# Fanlarni shakllantirish




Tizimning asosiy menusidan **Fanlar** bo'limiga kirib **Fan yaratish** tugmasi tanlanadi.
Natijada quyidagicha oyna ochiladi:




Oynadagi maydonga **fan nomi** kiritilib, **Aktiv** holati tanlanib, **Saqlash** tugmasini bosish orqali fan yaratiladi. Natijada tizimda siz tomoningizdan qo'shilgan fan, fanlar ro'yxatida namoyon bo'ladi. Barcha fanlar yuqoridagi tartib asosida tizimga qo'shiladi.




Barcha fanlar tizimga qo'shib bo'lingandan so'ng, dars jarayonlari olib boriladigan barcha xonalarni tizimga qo'shish talab e'tiladi.

## Xonalarni tizimga qo'shish




Xonalarni qo'shish uchun tizimdagi asosiy menudan **Dars jadvali** bo'limiga kirib **Xona yaratish** tugmasi tanlanadi.
Natijada quyidagicha oyna ochiladi:




Oynadagi maydonga **xona nomi** yoki **xona nomeri** kiritilib, **Aktiv** holati tanlanib, **Saqlash** tugmasini bosish orqali xona tizimga qo'shiladi. Natijada tizimda siz tomoningizdan qo'shilgan xona, xonalar ro'yxatida namoyon bo'ladi. Barcha xonalar yuqoridagi tartib asosida tizimga qo'shiladi.

## Dars jadvali bo'limi




Dars jadvali bo'limiga tizimdagi asosiy menudan **Dars jadvali** bo'limiga kirib **dars jadvali** tugmasi tanlanadi. Bu bo'limda siz o'quv markazida olib boriladigan darslar jadvalini hafta kunlariga mos ravishda ko'rishingiz mumkin. Dars jadvalini tizim avtomatik tarzda tuzib beradi. Buning uchun siz xonalar va guruhlarni tizimga kiritgan bo'lishingiz lozim. Dars jadvalida hafta kunlariga mos holda olib boriladigan darslar, ularga biriktirilgan xonalar va dars jarayonini olib boruvchi fan o'qituvchisi ko'rsatilgan.

## Guruhlarni shakllantirish




Guruhlarni shakllantirish uchun tizimdagi asosiy menudan **Guruhlar** bo'limiga kirib **Aktiv guruhlar** tugmasi tanlanadi. Natijada bizda quyidagi oyna namoyon bo'ladi .




Yangi guruh shakllantirish uchun ushbu oynadan pastki o'ng burchakda joylashgan **qo'shish (+)** tugmasini bosing. Natijada sizda quyidagi oyna namoyon bo'ladi.




Ushbu oynadagi barcha maydonlarni to'ldiring. Ma'lumotlarni to'g'ri kiritganingizdan keyin **Saqlash** tugmasini bosing. Agar kiritilgan ma'lumotlar qatorida xatolik bo'lsa tizim tomonidan xatolik to'g'risidagi ogohlantirish oynasi namoyon bo'ladi. Ogohlantirish oynasida siz tomoningizdan yo'l qo'yilgan xatolik ko'rsatiladi. Ma'lumot saqlanishi uchun, siz ushbu xatolikni bartaraf etishingiz

lozim. Dars vaqti va dars jarayoni olib boriladigan xona maydonlarini to'ldirish jarayonida e'tiborli bo'lish talab etiladi. Bir vaqtning o'zida bitta xonaga bir nechta dars jarayoni olib borishga ruxsat etilmaydi. Ya'ni siz bir vaqtda bitta xonaga bir nechta dars qo'yib yuborsangiz, tizim avtomatik xatolik ko'rsatadi va boshqa xona yoki boshqa dars vaqti tanlash kerakligi haqida xabar beradi.




Bu holatda siz oldin shakllantirilgan guruhlar dars vaqtlari va dars bo'ladigan xonalarni tekshirib, bir vaqtga tushib qolmaydigan vaqt va xonani kiriting.

## O'quvchilar bo'limi

---

Ushbu bo'limda quyidagilar mavjud:

- **Guruhga olinmagan** – o'quv markaziga birinchi marta tashrif buyurib o'qish istagini bildirgan, lekin guruhlarni tanlamagan o'quvchilarni ko'rish yoki ularni mos guruhlarga biriktirish;
- **Guruhga olingan** – o'quv markazida mavjud o'quv kurslari guruhlarida o'qiyotgan o'quvchilar bo'yicha barcha ma'lumotlar;
- **Arxiv** – O'quv markazida ta'lim olib ketgan yoki ma'lum sabablarga ko'ra o'qishni davom ettira olmagan o'quvchilar to'g'risidagi barcha ma'lumotlar;
- **Registratsiya (Oddiy)** – O'quv markazida o'qishga qiziqish bildirgan lekin guruhlarni tanlamagan o'quvchilarni vaqtincha ro'yxatga olish;




- **Registratsiya (haqiqiy)** – Ushbu o'quv markazida o'qishi aniq bo'lgan va o'ziga mos guruhni tanlagan o'quvchilarni ro'yxatga olish.

### Oddiy registratsiya

Oddiy registratsiya orqali o'quvchini ro'yxatga olish quyidagicha amalga oshiriladi. Tizimdagi

asosiy menudan **O'quvchilar** bo'limiga kirib **Registratsiya (oddiy)** tugmasi tanlanadi. Natijada bizda quyidagi oyna namoyon bo'ladi .




Ushbu oynadagi barcha maydonlar to'ldiriladi. Shuni alohida e'tiborga olish lozimki, yulduzcha (*) belgisi bilan ajratib ko'rsatilgan maydonlar to'ldirilishi majburiy hisoblanadi. Qatorlar oxirida ko'rsatilgan reklama maydonidagi (Boshqa, Instagram, Flayer va Telegram) tugmalardan birini tanlash orqali o'quv markazini reklama marketing bazasini shaklantirib borishingiz mumkin. Bu orqali siz o'quv markazining reklama faoliyati qay darajada borayotganini kuzatishingiz va ularni tahlil qilib borishingiz mumkin, ya'ni qaysi reklama usuli o'quv markaziga ko'proq o'quvchilarni jalb qilayotgani qaysi usul samara bermayotgani to'g'risidagi ma'lumotlarni olishingiz mumkin. Bu sizga samarali reklama marketingini yuritish va samarasiz reklama faoliyatiga sarf etilayotgan mablag'larni tejash imkoniyatini beradi.

Oynadagi barcha maydonlar to'g'ri to'ldirilganligiga ishonch hosil qilganingizdan so'ng **Saqlash** tugmasini bosing. Natijada ro'yxatga olingan o'quvchi **Guruhga olinmagan** o'quvchilar ro'yxatiga qo'shiladi.




## Haqiqiy registratsiya

Haqiqiy registratsiya orqali o'quvchini ro'yxatga olish quyidagicha amalga oshiriladi. Tizimdagi asosiy menudan **O'quvchilar** bo'limiga kirib **Registratsiya (haqiqiy)** tugmasi tanlanadi. Natijada bizda quyidagi oyna namoyon bo'ladi .



Ushbu oynadagi barcha maydonlar to'ldiriladi. Shuni alohida e'tiborga olish lozimki, yulduzcha (*) belgisi bilan ajratib ko'rsatilgan maydonlar to'ldirilishi majburiy hisoblanadi. Oynadagi Login va parol maydonlarini to'ldirishda e'tiborli bo'ling! Foydalanuvchi logini tizim tomonidan avtomatik generatsiya qilib beriladi. Agar istasangiz ushbu loginni o'zingiz kiritishingiz mumkin. Ushbu yaratilgan login va parol orqali o'quvchi o'zining mobil ilovadagi shaxsiy kabinetiga kirishi mumkin. O'quvchining mobil ilovasi play marketdan (ilovani silkasi play marketdagi) yuklab olinadi.

Oynadagi barcha maydonlar to'g'ri to'ldirilganligiga ishonch hosil qilganingizdan so'ng **Keyingisi** tugmasini bosing. Natijada siz o'quvchini guruhga qo'shish oynasiga o'tasiz. O'quvchini guruhga qo'shish oynasi quyidagi ko'rinishga ega.



Ushbu oynada siz o’quvchini guruhga qabul qilasiz, buning uchun ochilgan sahifadagi fanlar menusidan mos fanni tanlaysiz natijada tanlangan fan bo’yicha guruhlar ro’yxati namoyon bo’ladi. Guruhlar ro’yxatidan o’quvchiga mos bo’lgan guruhni belgilash orqali o’quvchi ushbu guruhga biriktiriladi.

Agar o’quvchi bir nechta fandan tahsil olmoqchi bo’lsa u holda siz yuqoridagi kabi boshqa fanlarga mos guruhlarga ham o’quvchini biriktirishingiz mumkin bo’ladi.




O’quv markazida o’quvchilar uchun maxsus chegirmalar yoki bir nechta fandan tahsil olayotgan o’quvchilarga chegirmalar mavjud bo’lsa, u holda tizim orqali chegirmalar belgilash imkoniyati mavjud. Chegirma belgilash uchun guruh tanlanganda chegirma berish maydonchasi paydo bo’ladi. Ushbu maydonchada chegirma summasini kiritish imkoniyati mavjud. Chegirma summasi so’mda ko’rsatilishi lozim.




Guruhni tanlab o’quvchilar uchun maxsus chegirma mavjud bo’lsa unga mos chegirma summasi to’liq kiritilgandan so’ng oynaning o’ng tomon yuqori qismida joylashgan **saqlash** tugmasi bosiladi. Barchasi to’g’ri bajarilgan bo’lsa u holda sizga O’quvchini muvaffaqiyatli ro’yxatdan o’tganligi to’g’risida ma’lumot beriladi va o’quvchining shaxsiy profili ochiladi. O’quvchining shaxsiy profili quydagi ko’rinishga ega.



O'quvchining shaxsiy profilda o'quvchining barcha ma'lumotlari hamda shaxsiy Login va paroli to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rishingiz mumkin.

## Guruhga olinmagan o'quvchilar




Guruhga olinmagan o'quvchilarni ko'rish uchun tizimdagi asosiy menudan **O'quvchilar** bo'limiga kirib **Guruhga olinmagan** tugmasi tanlanadi. Natijada bizda oddiy registratsiya orqali ro'yxatga olingan o'quvchilar ro'yxati namoyon bo'ladi. Shu yerdan siz o'quv markazida tahsil olishi aniq bo'lgan o'quvchilarni haqiqiy ro'yxatga olib, guruhlarga biriktirishingiz mumkin.




Guruhga olinmagan o'quvchilarni haqiqiy ro'yxatga olish va guruhlarga biriktirish uchun o'quvchining ism familiyasi ko'rsatilgan qatoridagi amallar panelidan **qo'shish(+)** tugmasi bosiladi. Natijada guruhga olinmagan o'quvchilar bo'limidagi ma'lumotlarga asoslangan haqiqiy ro'yxatga olish oynasi ochiladi.



Oynadagi tizim tomonidan to’ldirilmagan maydonlar o’quvchi tomonidan berilgan ma’lumotlar asosida to’ldiriladi.

Shuni alohida e’tiborga olish lozimki, yulduzcha (*) belgisi bilan ajratib ko’rsatilgan maydonlar to’ldirilishi majburiy hisoblanadi. Oynadagi Login va parol maydonlarini to’ldirishda e’tiborli bo’ling! Foydalanuvchi logini tizim tomonidan avtomatik generatsiya qilib beriladi. Agar istasangiz ushbu loginni o’zingiz kiritishingiz mumkin. Ushbu yaratilgan login va parol orqali o’quvchi  o’zining mobil ilovadagi shaxsiy kabinetiga kirishi mumkin. O’quvchining mobil ilovasi play marketdan (ilovani silkasi play marketdagi) yuklab olinadi.

Oynadagi barcha maydonlar to’g’ri to’ldirilganligiga ishonch hosil qilganingizdan so’ng **Keyingisi** tugmasini bosing. Natijada siz o’quvchini guruhga qo’shish oynasiga o’tasiz. O’quvchini guruhga qo’shish oynasi quyidagi ko’rinishga ega.




Ushbu oynada siz o’quvchini guruhga qabul qilasiz, buning uchun ochilgan sahifadagi fanlar menusidan mos fanni tanlaysiz natijada tanlangan fan bo’yicha guruhlar ro’yxati namoyon bo’ladi. Guruhlar ro’yxatidan o’quvchiga mos bo’lgan guruhni belgilash orqali o’quvchi ushbu guruhga biriktiriladi.




Agar o’quvchi bir nechta fandan tahsil olmoqchi bo’lsa u holda siz yuqoridagi kabi boshqa fanlarga mos guruhlarga ham o’quvchini biriktirishingiz mumkin bo’ladi.

O’quv markazida o’quvchilar uchun maxsus chegirmalar yoki bir nechta fandan tahsil olayotgan o’quvchilarga chegirmalar mavjud bo’lsa, u holda tizim orqali

chegirmalar belgilash imkoniyati mavjud. Chegirma belgilash uchun guruh tanlanganda chegirma berish maydonchasi paydo bo’ladi. Ushbu maydonchada chegirma summasini kiritish imkoniyati mavjud. Chegirma summasi so’mda ko’rsatilishi lozim.




Guruhni tanlab o’quvchilar uchun maxsus chegirma mavjud bo’lsa unga mos chegirma summasi to’liq kiritilgandan so’ng oynaning o’ng tomon yuqori qismida joylashgan **saqlash** tugmasi bosiladi. Barchasi to’g’ri bajarilgan bo’lsa u holda sizga O’quvchini muvaffaqiyatli ro’yxatdan o’tganligi to’g’risida ma’lumot beriladi va o’quvchining shaxsiy profili ochiladi. O’quvchining shaxsiy profili quydagi ko’rinishga ega.




O’quvchining shaxsiy profilda o’quvchining barcha ma’lumotlari hamda shaxsiy Login va paroli to’g’risidagi ma’lumotlarni ko’rishingiz mumkin.

## Guruhga olingan o’quvchilar




Guruhga olingan o’quvchilarni ko’rish uchun tizimdagi asosiy menudan **O’quvchilar** bo’limiga kirib **Guruhga olingan** tugmasi tanlanadi. Natijada bizda ro’yxatga olingan barcha o’quvchilar to’g’risidagi ma’lumotlar namoyon bo’ladi.




Guruhga olingan o’quvchilar bo’limida o’quvchilarni izlash, ular tartib asosida joylashtirish ular haqidagi barcha ma’lumotlarni Excel dasturiga eksport qilish imkoniyati tizim tomonidan avtomatlashtirilgan.

O’quvchining ism familyasi keltirilgan qatordagi qo’shish (+) tugmasi orqali o’quvchi to’g’risidagi ma’lumotlarni o’zgartirish hamda qo’shimchalar kiritish mumkin. Shu qatordagi ko’rish (icon qo’yiladi) tugmasi orqali o’quvchining shaxsiy profiliga o’tish mumkin. Qatordagi o’chirish (icon qo’yiladi) tugmasini bosish orqali o’quvchini ro’yxatdan o’chirish mumkin. Ro’yxatdan o’chirish jarayonida xavfsizlik nuqtai nazaridan tizim tomonidan o’chirishni tasdiqlash so’raladi.




O’chirishni tasdiqlash uchun xabar oynasidagi **OK** tugmasi bosiladi. Ro’yxatdan o’chirilgan barcha talabalar tizim arxivida saqlanadi.

Ushbu oynaning o’ng tomon pastki qismda joylashgan qo’shish **(+)** tugmasi orqali haqiqiy registratsiya bo’limiga o’tish mumkin.

## To’lovlar

To’lovlar menyusi quyidagi bo’limlardan iborat:

- O’quvchilar ro’yxati – o’quvchilar ro’yxati va to’lovlarni qabul qilish;
- To’lovlar ro’yxati – o’quvchilar tomonidan amalga oshirilgan to’lovlar ro’yxati;

- Qarzdorlar – qarzdor o’quvchilar ro’yxati bilan tanishish, o’quvchilar va ularning ota-onalariga qarzdorlik to’g’rida sms xabarlar yuborish;
- Hisobotlar – guruhlar bo’yicha oylik to’lovlar hisobini yuritish, qarzdorlik va ortiqcha to’lovlar summalari bo’yicha oylik, kvartalniy va yillik hisobotlarni avtomatik olish imkoniyati;




O’quv kurslari uchun to’lovlarni qabul qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Tizimdagi asosiy menudan **To’lovlar** bo’limiga kirib **o’quvchilar ro’yxati** tugmasi tanlanadi. Natijada bizda quyidagi oyna namoyon bo’ladi.




O’quvchilar ro’yxatidan to’lovni amalga oshirmoqchi bo’lgan o’quvchining ism familiyasi topiladi va shu qatorida joylashgan To’lov(Hamyon) tugmasini bosish orqali to’lov oynasiga o’tiladi.



To’lov oynasida joylashgan + to’lov tugmasi bosiladi, natijada hosil bo’lgan to’lov maydonlari to’ldiriladi. Maydonlarni to’ldirish jarayonida o’quvchining to’lovni amalga oshirmoqchi bo’lgan guruhi, to’lov sanasi, to’lov miqdori hamda to’lov turi aniq ko’rsatilishi lozim. Barcha maydonlar to’g’ri to’ldirilgandan so’ng **To’lovni kiritish** tugmasi bosiladi.







To’lov jarayoni to’g’ri amalga oshirilgan bo’lsa, Tizim tomonidan to’lov muvaffaqiyatli amalga oshirilganligi to’g’risida xabar beriladi. Shu bilan bir qatorda o’quvchi va uning ota-onasiga to’lov amalga oshirilganligi to’g’risida sms xabar, Telegram bot orqali o’quvchining telegram akkauntiga to’lov xabarnomasi yuboriladi. Bu o’quvchilar va ularning ota-onalariga to’lovlarni doimiy nazorat qilib borish imkoniyatini yaratib beradi.

Tizim tomonidan to’lovni amalga oshirgan o’quvchilar uchun to’lov




cheklarini shakllantirib berish imkoniyati ham yaratilgan. To’lov chekini chop etish uchun o’quvchining to’lov amalga oshirgan guruhi qatoridagi

chop etish tugmasi tanlanadi. Natijada o'quvchi uchun quyidagi namunadagi to'lov cheki chop etib beriladi.


O`quvchining to`lovlari

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| №: N1501<br>O`quv markaz nomi | | | | №: N1501<br>O`quv markaz nomi | | |
| ProgressPro | | | | ProgressPro | | |
| Bank nomi | OKOHH | INN | | Ismi familiyasi | | |
| | | | | Oxunov Soxibullo | | |
| Bank hisob raqami | | Telfon raqami | | To`lov miqdori | To`lov turi | To`lov vaqti |
| | | +998333651717 | | 400000 | Naqd | 2021-01-09 |
| Fan nomi | Guruh nomi | Ism Familiyasi | | Fan nomi | Guruh nomi | |
| Matematika | Matematiklar | Oxunov Soxibullo | | Matematika | Matematiklar | |
| To`lov miqdori | To`lov turi | To`lov vaqti | To`lov oyi | To`lov oyi | | |
| 400000 | Naqd | 2021-01-09 | Yanvar | Yanvar | | |

Asos:________________________________________

Direktor:____________ imzo ________ Direktor:____________ imzo ________

Administrator:____________ imzo ________ Administrator:____________ imzo _____




To'lovlar ro'yxati bo'limi orqali o'quvchilar tomonidan amalga oshirilgan barcha to'lovlar to'g'risida ma'lumot olish imkoniyati yaratilgan. Ma'lumotlarni olish uchun tizimdagi asosiy menudan **To'lovlar** bo'limiga kirib **To'lovlar ro'yxati** tugmasi tanlanadi. Natijada bizda quyidagi oyna namoyon bo'ladi .




| # | Guruh nomi | O`quvchi F.I.Sh. | Sana | To'lov miqdori | To'lov turi |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Matematiklar | Oxunov Soxibullo | 2021-01-09 | 400000 | Naqd |
| 2 | Inglizlar | Oxunov Soxibullo | 2020-12-10 | 400000 | Naqd |
| 3 | Fizikchilar1 | Oxunov Soxibullo | 2020-12-14 | 400000 | Naqd |
| 4 | Fizikchilar1 | Oxunov Soxibullo | 2020-12-14 | 200000 | Naqd |
| 5 | Inglizlar | Abdullayev Karimjon | 2020-12-09 | 400000 | Naqd |
| 6 | Inglizlar | Abdullayev Nodir | 2020-11-01 | 400000 | Naqd |
| 7 | Inglizlar | Xolto'rayev Shahzodbek | 2020-11-26 | 400000 | Naqd |
| 8 | Ona tili adabiyot | Ortiqov Dilshod | 2020-11-23 | 50000 | Naqd |

Ushbu oynada o'quvchilar tomonidan amalga oshirilgan to'lovlar haqida ma'lumotlarni ko'rish, to'lovlar ro'yxatini excel dasturiga eksport qilish, to'lov cheklarini chop etish imkoniyatlari mavjud. Barcha o'quvchilar

tomonidan amalga oshirilgan to’lovlar ro’yxatini shakllantirish uchun, oynani yuqori o’ng qismida joylashgan, Excel(icon) tugmasini bosish lozim. Natijada tizim tomonidan avtomatik tarzda barcha ma’lumotlar excel formatida hisobot shaklida shakllantirib beriladi.




Qarzdorlar bo’limi orqali qarzdorligi mavjud bo’lgan o’quvchilar to’g’ridagi barcha ma’lumotlarni olish imkoniyati yaratilgan. Qarzdorligi mavjud bo’lgan o’quvchilar to’g’risida ma’lumot olish quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Tizimdagi asosiy menudan **To’lovlar** bo’limiga kirib **Qarzdorlar** tugmasi tanlanadi. Natijada bizda quyidagi oyna namoyon bo’ladi .




| # | O`quvchi F.I.Sh. | Guruh nomi | Fan(kurs) nomi | To`lanishi kerak | To`landi | Amallar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Abdullayev Nodir | 1)Inglizlar | 1)Ingliz tili | 550000 | 0 | |
| 2 | Abdullayev Botir Zokirovich | 1)Fizikchilar1<br>2)Inglizlar | 1)Fizika<br>2)Ingliz tili | 950000 | 0 | |
| 3 | Soxibov Doniyor | 1)Inglizlar<br>2)Matematiklar | 1)Ingliz tili<br>2)Matematika | 900000 | 0 | |
| 4 | Narzullayev Sanjar | 1)Fizikchilar1<br>2)Inglizlar<br>3)Matematiklar<br>4)Ona tili adabiyot | 1)Fizika<br>2)Ingliz tili<br>3)Matematika<br>4)Ona tili | 1800000 | 0 | |

Ushbu oynada o’quvchilarning fanlar uchun to’lovlardan qarzdorligi haqida ma’lumotlarni ko’rish, qarzdorlar ro’yxatini excel dasturiga eksport qilish, qarzdorlarning barchasiga bir vaqtning o’zida sms xabarlar yuborish imkoniyati yaratilgan. Qarzdorligi mavjud bo’lgan barcha o’quvchilar ro’yxatini shakllantirish uchun, oynani yuqori o’ng qismida joylashgan, Excel(icon) tugmasini bosish lozim. Natijada tizim tomonidan avtomatik tarzda barcha ma’lumotlar excel formatida hisobot shaklida shakllantirib beriladi. Siz ro’yxatdagi barcha o’quvchilar va ularning ota-onalariga bitta tugma orqali to’lovni amalga oshirish to’g’risida sms xabarnomalar yuborishingiz mumkin. Buning uchun yuqorida joylashgan **Xabar yuborish** tugmasini bosish yetarli. Agar yuqorida joylashgan **Xabar yuborish** tugmasi bosilsa quyidagi xabar oynasi ochiladi. Siz bu oyna

orqali o’quvchilarning shaxsiy kabinetiga, telegram akkauntiga, qo’l telefoniga yoki ota-onasining telefon raqamiga to’lovni amalga oshirish to’g’risida xabarnomalar yuborishingiz mumkin.




Xabar yuborish jarayonida uning tartibini belgilash talab etiladi. Ya’ni xabarni o’quvchining shaxsiy kabinetiga, telegram akkauntiga, telefon raqamiga, ota-onasining telefon raqamiga yoki barchasiga yuborish tartibi belgilanib, **SMS Yuborish** tugmasi bosiladi.




Tizimning to’lov hisobotlari bo’limi orqali guruhlar bo’yicha oylik to’lovlar to’g’risidagi barcha hisobotlarni olish imkoniyati yaratilgan. Tizimning **hisobotlar** bo’limiga kirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Tizimdagi asosiy menudan **To’lovlar** bo’limiga kirib **Hisobotlar** tugmasi tanlanadi. Natijada bizda quyidagi oyna namoyon bo’ladi.




| # | Guruh nomi | To`lanishi kerak | To`landi(naqd) | To`landi(plastik) | To`landi(pul ko`chirish) | To`landi(umumiy) | Amallar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Ona tili adabiyot | 1500000 | 0 | 0 | 0 | 0 | |
| 2 | Matematiklar | 2100000 | 400000 | 0 | 0 | 400000 | |
| 3 | Inglizlar | 4950000 | 0 | 0 | 0 | 0 | |
| 4 | Fizikchilar1 | 2400000 | 0 | 0 | 0 | 0 | |

1 - 4 ta ma`lumot 4 tadan

To`lanishi kerak: 10 950 000 so`m To`landi(umumiy): 400 000 so`m Qoldi(umumiy): 10 550 000 so`m

Hisobotlar oynasida barcha guruhlar bo’yicha to’lanishi lozim bo’lgan to’lov summasi, oy davomida amalga oshirilgan to’lovlar, va qarzdorlik to’g’risidagi barcha ma’lumotlar o’z aksini topgan. Guruhdagi barcha o’quvchilarning to’lov hisobotlari bilan tanishish uchun guruh nomi ko’rsatilgan qatorda joylashgan **ko’rish(icon)** tugmasini bosish talab etiladi. Ko’rish tugmasi bosilganda guruh bo’yicha o’quvchilarning to’lov hisobotlari aks etgan oyna namoyon bo’ladi.




| # | Ism Familiyasi | To`lanishi kerak(umumiy) | To`landi(umumiy) | Qoldi(umumiy) | Amallar |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Soxibov Doniyor | 350000 | 0 | 350000 | |
| 2 | Narzullayev Sanjar | 350000 | 0 | 350000 | |
| 3 | Ortiqov Dilshod | 350000 | 0 | 350000 | |
| 4 | Xolto'rayev Shahzodbek | 350000 | 0 | 350000 | |
| 5 | Abdullayev Karimjon | 350000 | 0 | 350000 | |
| 6 | Oxunov Soxibullo | 350000 | 400000 | -50000 | |

Ushbu oynada o’quvchilarning amalga oshirgan to’lovlari, mavjud qarzdorliklari va ortiqcha to’lovlari to’g’risida hisobotlarni ko’rish mumkin. Yana shuni alohida takidlab o’tish lozimki, ushbu oynani o’zida o’quvchilar uchun to’lovlarni amalga oshirish imkoniyati yaratilgan. To’lovni amalga oshirish uchun o’quvchining ism familiyasi ko’rsatilgan qatorida joylashgan **hamyon(icon)** tugmasi bosish talab etiladi.




## Maosh

Xodimlarga maosh to’lash quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Tizimdagi asosiy menudan **Maosh** bo’limiga kirib **Ishchilar ro’yxati** tugmasi tanlanadi. Natijada bizda quyidagi oyna namoyon bo’ladi.




| # | Ishchi F.I.Sh. | Lavozim | Amallar |
|---|---|---|---|
| 1 | Shahzodbek Xoltorayev | Administrator | |
| 2 | Ortiqov Dilshod | O`qituvchi | |
| 3 | Akmalov Musurmon | O`qituvchi | |
| 4 | Shoxodillayev Bekzod | O`qituvchi | |
| 5 | buxgalter1717 | Hisobchi | |

Xodimga oylik maosh to’lovini amalga oshirish uchun oynadagi xodimning ismi familiyasi qatorida joylashga **Hamyon(icon)** tugmasini bosish orqali quyidagi oynaga o’tiladi.




Bu oynada xodimning shaxsiy ma’lumotlari, oldingi oylarda to’langan maoshlar ro’yxati, unga biriktirilgan o’quvchilar soni hamda to’lanishi lozim bo’lgan maosh summasi ko’rsatilgan. Xodimga maosh to’lash uchun ushbu oynadagi + **To’lov** tugmasini bosiladi, natijada hosil bo’lgan to’lov maydonlari to’ldiriladi. Maydonlarni to’ldirish jarayonida xodimga to’lov amalga oshirilgan sana, to’lov miqdori hamda to’lov turi aniq ko’rsatilishi lozim. Barcha maydonlar to’g’ri to’ldirilgandan so’ng **To’lovni kiritish** tugmasi bosiladi.




To’lov muvaffaqiyatli amalga oshirilganidan so’ng, xodimning shaxsiy kartochkasida to’langan maosh to’lovi va to’lovdan qolgan qoldiq summa namoyon bo’ladi.

## Davomat




O’quvchilarni davomat qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Tizimdagi asosiy menudan **Davomat** bo’limiga kirib **Davomat qilish** tugmasi tanlanadi. Natijada bizda quyidagi oyna namoyon bo’ladi.




Ushbu oynada shu kuni dars o’tilishi lozim bo’lgan guruhlar ro’yxati yuqori qismida, barcha guruhlar ro’yxati esa pastki qismida ko’rsatilgan bo’ladi. Davomat qilinmagan guruhlar alohida qizil rang bilan ajratilgan bo’lib, uni davomat qilish kerakligini ko’rsatadi. Shu kuni dars o’tilishi lozim bo’lgan guruh o’quvchilarini davomat qilish uchun, yuqoridagi guruhlar qatoridan hozirda dars jarayoni bo’layotgan guruhni tanlanadi, natijada quyidagi davomat oynasi namoyon bo’ladi.




Davomat oynasida o’quvchilar ro’yxati va ularning o’ng tomonida **Belgilash**(icon) tugmachalari mavjud. Ushbu tugmachalar yordamida dars jarayoniga qatnashotgan o’quvchilar belgilanadi va **Saqlash** tugmasi bosiladi. Yuqorida belgilanmagan o’quvchilar darsda **qatnashmagan** hisoblanadi. Natijada o’quvchilar va ularning ota-onalariga o’quvchining bugungi darsga qatnashmaganligi to’g’risida SMS xabarnoma shaklida ogohlantirish yuboriladi.

# Hisobot




O'quvchilarni davomati to'g'risida hisobotini olish quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Tizimdagi asosiy menudan **Davomat** bo'limiga kirib **Hisobotlar** tugmasi tanlanadi. Natijada bizda quyidagi oyna namoyon bo'ladi.




Davomat hisobotini olish uchun, oynaning o'ng yuqori burchagida joylashgan kalendardan kerakli sanani tanlanadi. Natijada tizim tomonidan ko'rsatilgan muddat bo'yicha davomat hisoboti ushbu oynada o'z aksini topadi. Ushbu hisobotni excel dasturiga eksport qilish uchun, oynani yuqori o'ng qismida joylashgan, Excel(icon) tugmasini bosish lozim. Natijada avtomatik tarzda barcha ma'lumotlar excel formatida hisobot shaklida shakllantirib beriladi.

# Imtixonlar

Tizimda imtixonlarni o'tkazish tartibi ikki xil usulda amalga oshiriladi.

- DTM uchun imtixon qo'shish – o'quvchilarni Davlat test imtixonlariga tayyorlash maqsadida o'tkaziladi;
- Umumiy imtixon qo'shish-maxsus tartiblar asosida (IELTS, TOEFL, CEFR, TOPIK va hk) o'tkaziladigan imtixonlarga tayyorlash maqsadida o'tkaziladi;




Tizim tomonidan o'quvchilar uchun davlat test markazi imtixonlariga tayyorlash maqsadida o'tkaziladigan test imtixonlari quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Tizimdagi asosiy menudan **Imtixonlar** bo'limiga kirib **DTM uchun imtixon qo'shish** tugmasi

tanlanadi. Natijada bizda quyidagi oyna namoyon bo’ladi.




Ushbu oynada imtixon nomini kiritilib, bloklar bo’yicha fan va unga belgilangan ballar ketma-ketligi tanlanadi. Bloklarni 5tagacha tanlashingiz mumkin. Oynaning pastki qismida joylashgan fanlar bo’yicha shakllantirilgan guruhlar ro’yxatidan imtixon o’tkazilishi lozim bo’lgan guruhlar tanlanadi.

Yuqoridagi amallarning barchasi to’g’ri bajarilganidan so’ng, **Saqlash** tugmasi bosiladi. Natijada sizda imtixonlar ro’yxati oynasi ochiladi, ushbu oynada siz o’zingiz tomoningizdan yaratilgan imtixon nomini ko’rishingiz mumkin.




Tizimdagi Imtixonlar ro’yxati bo’limi orqali o’tkazilgan barcha imtixonlar, Imtixonda qatnashgan guruhlar va ularning o’quvchilar to’g’risidagi barcha ma’lumotlarni ko’rish mumkin. **Imtixonlar** bo’limiga kirish uchun tizimdagi asosiy menudan **Imtixonlar** bo’limiga kirib **imtixonlar ro’yxati** tugmasi tanlanadi. Natijada bizda **imtixonlar ro’yxati** oynasi ochiladi.



Ushbu oynada barcha Imtixonlar ro'yxati bilan bir qatorda maxsus tugmachalar (ko'rish, qo'shish, menu, o'chirish) ro'yxati joylashtirilgan bo'lib ularning har biri nomlariga mos holda alohida vazifalarni bajaradi.
**Qo'shish(icon)** tugmasini bosish orqali imtixonda qatnashgan o'quvchilarning natijalarini kiritish oynasiga o'tish mumkin, ushbu oyna quyidagi ko'rinishga ega.




Oynada fanlarga mos bloklar maydonlari keltirilgan bo'lib, har bir maydonga mos holda o'quvchilarning to'g'ri javoblar soni kiritiladi va **Saqlash** tugmasi bosiladi. Natijada tizim o'quvchilar tomonidan to'plagan ballarini avtomatik hisoblab natija ustiniga yozadi, hamda imtixon natijalarini ularning telefon raqamiga, shaxsiy kabinetiga va ota-onalarining telefon raqamiga sms tarzda yuboradi. Imtixonlar ro'yxati oynasiga qaytish uchun, tizimdagi asosiy menudan **Imtixonlar** bo'limiga kirib **imtixonlar ro'yxati** tugmasi tanlanadi. Natijada bizda **imtixonlar ro'yxati** oynasi qayta ochiladi.




Oynadagi **Ko'rish(icon)** tugmasi orqali ushbu imtixonda qatnashgan barcha o'quvchilarning imtixon natijalarini ko'rish mumkin. Natijalar quyidagi ko'rinishda bo'ladi.




| # | Ism Familiyasi | 1-blok Ingliz tili Maksimal (3.1 bal) | 2-blok Ona tili Maksimal (2.1 bal) | 3-blok Matematika Maksimal (1.1 bal) | Natija(ball) |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Abdullayev Nodir | 20 ta | 20 ta | 20 ta | 126 |
| 2 | Abdullayev Botir Zokirovich | 28 ta | 30 ta | 27 ta | 179.5 |
| 3 | Soxibov Doniyor | 12 ta | 20 ta | 25 ta | 106.7 |
| 4 | Narzullayev Sanjar | 30 ta | 15 ta | 33 ta | 160.8 |
| 5 | Ortiqov Dilshod | 33 ta | 32 ta | 29 ta | 201.4 |
| 6 | Oxunov Soxibullo | 28 ta | 29 ta | 30 ta | 180.7 |

Natija oynasining oxirgi ustinida joylashgan tepa-past yo'nalish strelkalari orqali o'quvchilar natijasini o'sish yoki kamayish tartibida saralash imkoniyati yaratilgan. Natijalarni excel dasturiga eksport qilish uchun, oynani yuqori o'ng qismida joylashgan, Excel(icon) tugmasini bosish lozim. Natijada avtomatik tarzda barcha o'quvchilarning imtixon natijalari excel formatida hisobot shaklida shakllantirib beriladi.




Tizimda umumiy imtixonlarni yaratish quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Tizimdagi asosiy menudan **Imtixonlar** bo'limiga kirib **Umumiy imtixon qo'shish** tugmasi tanlanadi. Natijada bizda quyidagi oyna namoyon bo'ladi.




Ushbu oynada imtixon nomini kiritilib, bloklar bo'yicha topshiriqlar va unga belgilangan ballar ketma-ketligi tanlanadi. Ballarni belgilashda

imtixon turiga alohida e'tibor qaratish lozim. Misol uchun IELTS imtixonida Tinglash, O'qish, Yozish, Gapirib berish kabi baholash bloklari mavjud bo'lib har biri uchun maxsus 9 balli ballar reytinggi belgilangan. Bloklarni 5 tagacha tanlashingiz mumkin. Oynaning pastki qismida joylashgan fanlar bo'yicha shakllantirilgan guruhlar ro'yxatidan imtixon o'tkazilishi lozim bo'lgan guruhlar tanlanadi. Yuqoridagi amallarning barchasi to'g'ri bajarilganidan so'ng, **Saqlash** tugmasi bosiladi. Natijada sizda imtixonlar ro'yxati oynasi ochiladi, ushbu oynada siz o'zingiz tomoningizdan yaratilgan imtixon nomini ko'rishingiz mumkin. Umumiy imtixonlarni natijasini hisoblash va ularning natijalarini sms xabarnoma shaklida yuborish DTM imtixonlari kabi tartibda amalga oshiriladi.

## Xabarlar




Tizimning Xabarlar bo'limida guruhlar bo'yicha xabarlar yuborish, barcha o'quvchilarga xabarlar yuborish, tabriklar yo'llash va yuborilgan xabarlar arxivini ko'rish imkoniyati mavjud.




O'quvchilarga guruhlar bo'yicha alohida xabarlar yuborish uchun Tizimdagi asosiy menudan **Xabarlar** bo'limiga kirib **Guruhlar ro'yxati** tugmasi tanlanadi.

Guruhlar ro'yxati oynasida, guruhning nomi, guruh o'quvchilarining tahsil olayotgan fani hamda guruh shakllantirilgan vaqti ko'rsatilgan bo'ladi. Guruh o'quvchilariga xabar yuborish uchun, guruhning nomi ko'rsatilgan qator oxiridagi Ko'rish tugmasini bosing. Natijada o'quvchilar ro'yxati aks ettirilgan oyna namoyon bo'ladi.




Oynada o’quvchining shaxsiy ma’lumotlari va unga yuborilgan xabarlar soni ko’rsatilgan. Siz har bir o’quvchiga alohida hamda bir vaqtning o’zida barcha o’quvchilarga bir xil xabarlarni yuborish imkoniyatiga egasiz. Har bir o’quvchiga alohida xabar yuborish uchun, o’quvchining ismi familiyasi ko’rsatilgan qator oxiridagi Yuborish(icon) tugmasini bosing. Natijada o’quvchi bilan Onlayn muloqot qilish oynasi ochiladi.




Bu oynada o’quvchilar bilan onlayn chat orqali muloqot qilishingiz, unga vazifalar va topshiriqlarni fayl ko’rinishda yuborishingiz, o’quvchi ham EDU-SMART mobil ilovasi orqali sizga xabar yozishi, fayllar yuborishi, savollar yo’llash imkoniyatiga ega.




Bir nechta o'quvchilarga yuborish uchun esa o'quvchining ismi familiyasi ko'rsatilgan qatorida joylashgan belgilash(icon) tugmasi orqali o'quvchilarni tanlab oling. O'quvchilarni tanlab olganingizdan so'ng yuqorida joylashgan Xabar yuborish tugmasini bosing. Natijada bizda quyidagi xabar yuborish oynasi namoyon bo'ladi




Siz bu oynada yubormoqchi bo'lgan xabar matningizni kiritib yuborish usullarini tanlab, **SMS YUBORISH** tugmasini bosish orqali ko'rsatilgan usullar orqali o'quvchining shaxsiy kabinetiga, telegram akkauntiga, telefon raqamiga va ota-onasining telefoniga sms xabar ko'rinishida xabarlar yuborishingiz mumkin.




Tizimda o'quv markazining barcha o'quvchilariga bir vaqtning o'zida xabarlar yuborish imkoniyati yaratilgan. Buning uchun tizimdagi asosiy menudan **Xabarlar** bo'limiga kirib **Barcha talabalar ro'yxati** tugmasi tanlanadi. Natijada bizda o'quv

markazida tahsil olayotgan barcha o’quvchilar ro’yxati namoyon bo’ladi.




Oynada o’quvchining shaxsiy ma’lumotlari va unga yuborilgan xabarlar soni ko’rsatilgan. Siz har bir o’quvchiga alohida hamda bir vaqtning o’zida barcha o’quvchilarga bir xil xabarlarni yuborish imkoniyatiga egasiz. Har bir o’quvchiga alohida xabar yuborish uchun, o’quvchining ismi familiyasi ko’rsatilgan qator oxiridagi Yuborish(icon) tugmasini bosing. O’quvchi bilan Onlayn muloqot qilish oynasi ochiladi.




Bu oynada o’quvchilar bilan onlayn chat orqali muloqot qilishingiz, unga vazifalar va topshiriqlarni fayl ko’rinishda yuborishingiz, o’quvchi ham EDU-SMART mobil ilovasi orqali sizga xabar yozishi, fayllar yuborishi, savollar yo’llash imkoniyatiga ega.

Bir nechta o’quvchilarga yuborish uchun esa o’quvchining ismi familiyasi ko’rsatilgan qatorida joylashgan belgilash(icon) tugmasi orqali o’quvchilarni tanlab oling. O’quvchilarni tanlab olganingizdan so’ng yuqorida joylashgan Xabar yuborish tugmasini bosing. Natijada bizda quyidagi xabar yuborish oynasi namoyon bo’ladi




Siz bu oynada yubormoqchi bo’lgan xabar matningizni kiritib yuborish usullarini tanlab, **SMS YUBORISH** tugmasini bosish orqali ko’rsatilgan usullar orqali o’quvchining shaxsiy kabinetiga, telegram akkauntiga, telefon raqamiga va ota-onasining telefoniga sms xabar ko’rinishida xabarlar yuborishingiz mumkin.

Tizimda o’quv markazi tomonidan o’quvchilarni rag’batlantirish va qiziqishlarini orttirish maqsadida, o’quvchilarning tug’ulgan kunlarida, bayramlarda va boshqa tadbirlarda o’quvchilar va ularning ota-onalariga tabriklarni sms xabarlar shaklida yuborish imkoniyati yaratilgan.




Tabriklar bo’limi orqali tabriknomalar yuborish uchun Tizimdagi asosiy menudan **Xabarlar** bo’limiga kirib **Tabrik** tugmasi tanlanadi. Natijada bizda o’quv markazida ushbu kunda tug’ilgan kunini nishonlayotgan o’quvchilar ro’yxati namoyon bo’ladi.



Oynada bugun tavallud kunlarini nishonlayotgan o'quvchilarning shaxsiy ma'lumotlari va unga yuborilgan xabarlar soni ko'rsatilgan. Siz bir vaqtning o'zida ro'yxatdagi barcha o'quvchilarga tabriklarni yuborish imkoniyatiga egasiz. Buning uchun o'quvchining ismi familiyasi ko'rsatilgan qatorida joylashgan belgilash(icon) tugmasi orqali o'quvchilarni tanlab oling. O'quvchilarni tanlab olganingizdan so'ng yuqorida joylashgan Xabar yuborish tugmasini bosing. Natijada bizda quyidagi xabar yuborish oynasi namoyon bo'ladi




Siz bu oynada yubormoqchi bo'lgan tabrik matningizni kiritib yuborish usullarini tanlab, **SMS YUBORISH** tugmasini bosish orqali ko'rsatilgan usullar orqali o'quvchining shaxsiy kabinetiga, telegram akkauntiga, telefon raqamiga va ota-onasining telefoniga sms xabar ko'rinishida xabarlar yuborishingiz mumkin.

Tizimning xabarlar ro'yxati bo'limida o'quv markazi tomonidan o'quvchilarga yuborilgan barcha xabarlar arxini ko'rishingiz mumkin

.




Xabarlar arxivini ko'rish uchun tizimdagi asosiy menudan **Xabarlar** bo'limiga kirib **Xabarlar ro'yxati** tugmasi tanlanadi. Natijada bizda o'quv markazi tomonidan o'quvchilarga yuborilgan xabarlar ro'yxati namoyon bo'ladi.




## E’lonlar ro’yxati

Tizimning e’lonlar bo’limda o’quv markazi tomonidan chop etilgan e’lonlar va ularning arxivi bilan batafsil tanishish mumkin. E’lonlar bo’limi ikki qismdan iborat: E’lonlar ro’yxati va E’lon yaratish.




E’lonlar ro’yxatini ko’rish uchun tizimdagi asosiy menudan **E’lonlar** bo’limiga kirib **E’lonlar ro’yxati** tugmasi tanlanadi. Natijada bizda o’quv markazi tomonidan chop etilgan e’lonlar ro’yxati namoyon bo’ladi.




Har bir e’lon oynasi o’zida e’lonning qisqacha mazmuni, e’lon vaqti va e’lon bilan tanishgan o’quvchilar soni kabi ma’lumotlarni o’z ichiga oladi. E’lon oynasining pastki qismida **O’chirish va e’lon bilan tanishish** tugmalari joylashgan bo’lib, **O’chirish** tugmasini bosish orqali e’lonni

o'chirishingiz, **e'lon bilan tanishish** tugmasini bosish orqali e'lon bilan to'liq tanishishingiz va ushbu e'longa o'zgartirish kiritishingiz mumkin.




Yangi e'lon yaratish uchun tizimdagi asosiy menudan **E'lonlar** bo'limiga kirib **E'lon yaratish** tugmasi tanlanadi. Natijada quyidagi oyna ochiladi.




Oynadagi barcha maydonlarini to'ldiriladi va **Saqlash** tugmasi bosiladi. Muvoffaqiyatli yaratilgan yangi e'lon o'quvchilarning mobil ilovasida namoyon bo'ladi.

# O’quv markaz o’quvchilari uchun EDU-SMART mobil ilovasi

EDU-SMART tizimining o’quvchilarga mo’ljallangan maxsus mobil ilovasi mavjud bo’lib, bu ilovani play marketdan yuklab olish imkoniyati muvjud. O’quvchilar O’quv markazi tomonidan berilgan login va parol orqali shaxsiy kabinetlariga kira oladilar.

O’quvchilarga login va parol ularni ro’yxatdan o’tkazish vaqtida Adminstrator tomonidan taqdim etiladi.

**Quyida mobil ilovadan foydalanish tartibini tushuntirib o’tamiz!**

Mobil ilovani Play Marketdan quyidagi ilova ….. orqali ko’chirib olishingiz mumkin.




Ilovani o’rnating va uni ishga tushiring. Ilova ishga tushirilganidan so’ng, sizda mobil internet yoki wifi yoqilganligiga ahamiyat bering. (Ilova internet orqali to’liq Onlayn rejimida ishlaydi.) Asosiy oynada sizdan login va parolni kiritish talab etiladi. Adminstrator tomonidan berilgan login va parolni kiriting, va OK tugmasini bosing. Login va parol haqiqiyligi tizim tomonidan tekshirilgach sizga ilovadan foydalanishga ruxsat etiladi hamda sizning shaxsiy kabinetingiz ochiladi.




## Shaxsiy kabinetning asosiy oynasi

Shaxsiy kabinetning asosiy oynasi quyidagilardan iborat:

- O’quvchining shaxsiy ma’lumotlari va rasmi (agar administrator joylashtirgan bo’lsa);

- Dars jadvali bo'yicha, shu kuni o'quvchi qatnashishi lozim bo'lgan darslar ro'yxati, dars vaqti, fan nomi, dars jarayonini olib boruvchi o'qituvchi va kurs narxi ;
- Ilova menusi;

Mobil ilovaning asosiy oynasida keltirilgan kunlik dars jadvali o'quvchilar tomonidan darsni unitib qo'yish, ularga o'z vaqtida qatnasha olmaslik kabi muammolarni bartaraf etishga yordam beradi.
Ilovaning boshqa bo'limlariga ilovaning pastki qismida joylashgan ilova menusi yordamida o'tiladi.
Ilova menusi quyidagi bo'limlardan iborat:

**-Bosh sahifa**
**-Guruhlar**
**-Testlar**
**-Davomat**
**-Ko'proq**

Ilova menusining **Bosh sahifa** tugmasi orqali tizimning asosiy oynasiga o'tiladi.
Ilovaning guruhlar tugmasi orqali Guruhlar bo'limiga o'tiladi.




Guruhlar bo'limida o'quvchi o'zi qatnashayotgan barcha kurslar bo'yicha biriktirilgan fan guruhlari haqida to'liq ma'lumotlar olishi, guruhlar bo'yicha amalga oshirgan barcha to'lovlari to'g'isidagi ma'lumotlarni ko'rishi, guruh o'qituvchisi bilan onlayn chat orqali muloqot qilishi mumkin.

Tanlangan guruh bo'yicha amalga oshirilgan barcha to'lovlarni ko'rish uchun guruh ustiga bir marta bosiladi. Natijada quyidagi oyna ochiladi.




Ushbu oynadan pastki menuda joylashgan **To’lovlar** tugmasi bosiladi va to’lovlar bo’limiga o’tiladi.




**To’lovlar** bo’limi orqali ushbu guruhdagi barcha to’lovlar, mavjud qarzdorlik va ortiqcha to’lovlar summasini ko’rish imkoniyati mavjud.

To’lovlar bo’limining yuqori qismda joylashgan to’lov oyini tanlash menyusi orqali to’lov kalendariga o’tiladi, bu kalendar orqali istalgan sanadagi amalga oshirilgan to’lovlarni ko’rish imkoniyati mavjud.




To’lov bo’yicha qarzdorlik mavjud bo’lsa to’lov oynasining pastki o’ng tomonida qarzdorlik summsi ko’rsatib turiladi.

Guruh o’qtuvchi bilan Onlayn chat orqali muloqot qilish uchun ushbu guruh ustiga bir marta bosiladi

Natijada quyidagi oyna ochiladi.




Ushbu oynadan pastki menuda joylashgan **Chat** tugmasi bosish orqali muloqot oynasiga o’tiladi.




Muloqot oynasi orqali o’qituvchi bilan muloqotni amalga oshirish bilan bir qatorda, o’qituvchi tomonidan yuborilgan vazifa va topshiriqlarni qabul qilishi hamda ularga javob yuborish imkoniyati mavjud.

## Testlar

Ilova menusining Testlar bo’limi orqali o’quvchining barcha imtixon natijalarini ko’rish imkoniyati yaratilgan.




Ilovaning testlar bo’limiga o’tish uchun asosiy menudan **Testlar tumasini** tanlash kifoya.

Asosiy menudagi Davomat tugmasini bosish orqali Davomat bo’limiga o’tiladi.




Ushbu bo’limda maxsus kalendar dasturi joylashturilgan bo’lib, kalendarda o’quvchining dars jarayoniga qatnashaolmagan kunlari chiziqcha bilan ajratib ko’rsatilgan. Ajratib ko’rsatilgan kun tanlansa o’quvchi qoldirgan fan nomi, o’qituvchisi, qoldirilgan dars soati va vaqti ekranda namoyon bo’ladi.



Ilovaning asosiy menusidagi Ko'proq tugmasi orqali O'quv markazidagi barcha kurslar, o'quv markazining e'lonlari bilan yaqindan tanishish mumkin. Buning uchun asosiy menudagi Ko'proq tugmasi bir marta bosiladi, natijada quyidagi oyna namoyon bo'ladi.




Ushbu oynadagi Kurslar bo'limini tanlash orqali o'quv markazidagi barcha kurslarni ko'rish mumkin.




O'quv markazi tomonidan chop etilgan barcha e'lonlarni ko'rish uchun yuqoridagi oynadan E'lonlar bo'limini tanlash talab etiladi.